

“SARBADORLAR” ROMANIDA AMIR TEMUR SIYMOSIDA TARIXIY SHAXS TALQINI

To‘lqinov Bobirjon Baxtiyor o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti Filologiya fakulteti
Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: “Sarbadorlar” romanida Amir Temur obrazining tarixiy shaxs va badiiy talqinini ochib berish, tarixiy va badiiy adabiyotda tutgan o‘rnini ko‘rsatib berish maqola maqsadi sanaladi. Maqolada Amir Temur va Temuriylar davlatining tarixi, Temuriylar davlati asoschisi hisoblangan Amir Temurning hayoti va uning hayotida yuz bergan muhim voqealar, sarbadorlarning Amir Temur hayotida tutgan o‘rni yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy shaxs, obraz, konsepsiya, sarbadorlar devon, dargoh, siymo.

Abstract: The purpose of the article is to reveal the historical personality and artistic interpretation of the image of Amir Temur in the novel "Warlords", to show his place in historical and fiction literature. The article describes the history of Amir Temur and the Timurid state, the life of Amir Temur, who is considered the founder of the Timurid state, important events that happened in his life, the role of soldiers in the life of Amir Temur

Keywords: historical person, image, concept, court of warlords, executioner, image

O‘zbek adabiyotida Amir Temur obrazini yaratishga bo‘lgan intilish uzoq vaqtlardan davom etib keldi. Respublikamiz istiqlolga erishgach, turli janrlarda Sohibqiron siyemosini mukammal darajada yaratishga keng yo‘l ochildi. Tarixiy, tarixiy-xronikal asarlar, arxiv materiallari, esdalik va boshqa jahon miqyosida yig‘ilib kelinayotgan faktlar vositasida bu mavzu atrofida talay san’at asarlari yuzaga keldi.

Roman sifatida tavsiya etilgan “Sarbadorlar” asari to‘qima obrazlar asosiga qurilgan an’anaviy tarixiy romanlardan bayon uslubi, asar syujeti va kompozitsiyasi nuqtayi nazaridan an’anaviy romanlardan farq qiladi. Asarning janriy xususiyatlarini o‘rganib, uni badiiy to‘qima deb atash mumkin.

Amir Temurning davlat arbobi va tarixiy shaxs sifatidagi qiyofasi o‘z davri voqealariga va o‘sha davrning mashxur tarixiy shaxslariga munosabatda ohib berilgan. Bu jihatdan sulton Sohibqiron siymosini Amir Husayn, Yildirim Boyazid, To‘xtamishxon kabi yirik tarixiy shaxslarga nisbatan qiyosan o‘rganish bilan bosh qahramonning xarakter qirralari umumlashtiriladi. “Sarbadorlar” romani “Zafarnoma” asari bilan qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Yozuvchi Muhammad Alining masalaga tarixan yondoshganligi, voqeа-hodisalarni ijodiy va ilmiy tarzda ifoda etishdagi mahorati ko‘zdan kechiriladi. Sohibqironning insoniy fazilatlari talqinida yozuvchi uyyng‘uz atrofidagi kishilar, oila va farzandlari, saroy a’yonlariga bo‘lgan munosabatini kuzatgan va Sohibqiron shaxsiga bo‘lgan jahon adiblarining fikr-mulohazalariga qisqacha munosabat bildirgan. Istiqlol tufayli Amir Temur siymosiga roman janri imkoniyatlari darajasida murojaat qilgan adiblardan biri Muhammad Ali bo‘lib, yozuvchi ushbu romanda Sohibqiron obrazini davrning shiddatli voqealari fonida emas, balki go‘zal tabiat manzaralari bilan uyg‘un ravishda ko‘rsata olgan.

Muhammad Ali romani Amir Temur mavzusiga bag‘ishlangan ayni shu davrda yaratilgan boshqa romanlardan asar uslubining yengilligi, tilining sodda va latofatliligi, xalqona tasvirlarga boyligi bilan ajralib turadi. Muhammad Ali Temuriylarga bag‘ishlangan ikkinchi “Ulug‘ saltanat” romanini yozib, unda bevosita Sohibqironning ma’naviy dunyosi, vafodor va sadoqatli xotini Uljoy Turkon og‘aning yorqin siymosini tasvirlashni asosiy maqsad qilib olgan. Amir Temurdek millat qahramonining tarixiy yorqin qiyofasi, badiiy obrazining yangi qirralarini kashf etishga harakat qilindi.

O‘zbek olimlari tomonidan Amir Temur hayoti va faoliyatini o‘rganish sho‘rolar davrida boshlangan (I.Muminov) bo‘lsa-da, uning shaxsi va faoliyatiga xolis baho berish Istiqlol davriga to‘g‘ri keladi. Mustatsillik davrida buyuk jahongir faoliyatining deyarli barcha qirralarini yorituvchi tadqiqot, risola va maqolalar yaratildi. Amir

Temur siy whole in badiiy adabiyotda aks ettirish G‘arbda XVI asrdan boshlangan bo‘lsa-da, Sohibqironning o‘z yurtida, asosan, mustaqillik davriga kelib roman, drama, qissa, doston, hikoya va boshqa janrlarda ko‘plab badiiy asarlar yaratila boshladi. Bu jihatdan Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Abdulla Oripov va boshqa adiblarning asarlari diqqatga sazovordir.

O‘zbek adabiyotida Amir Temurning ulug‘ siy whole aks ettirilgan badiiy asarlarda bu murakkab xarakterli yirik shaxsiyat egasining hayoti va faoliyati ancha xolis, birlamchi manbalar asosida yaratilganining guvohi bo‘lamiz. Bu jihatdan B.Ahmedovning “Amir Temur” romani e’tiborga molik. Shuningdeq Muhammad Ali, To‘lqin Hayit romanlarida Amir Temur shaxsiyati davr voqealariga munosabatda o‘z aksini topgan. O‘zbek romanchiligiga Istiqlol tufayli Amir Temur mavzusi kirib keldi, sulton Sohibqiron siy whole keng epik planda haqqoniy aks ettirishda B.Ahmedov, Muhammad Ali, Ye.Berezikov, To‘lqin Hayit romanlari tarixiy va badiiy haqiqat tamoyillariga amal qilishda o‘ziga xos asarlar sifatida nasrimizdan o‘rin oldi. B.Ahmedovni yozuvchi sifatida, birinchi navbatda, Amir Temurning murakkab hayoti qiziqtiradi. U o‘z davrining tarixchilari Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh va boshqa mualliflarning birlamchi manbalariga tayangan holda Amir Temur hayoti va faoliyatini xronologik tartibda aks ettirdi. Roman sifatida tavsiya etilgan asar to‘qima obrazlar asosiga qurilgan an’anaviy tarixiy romanlardan bayon uslubi, asar syujeti va kompozitsiyasi nuqtayi nazaridan farq qiladi. Asar bosh qahramoni Sohibqiron siy whole yaratishda yozuvchi birinchi navbatda, tarixiylik tamoyiliga asoslangan holda, Amir Temurni davr voqealarida qanday ishtirok etgan bo‘lsa, shunday aks ettirishga intilgan. Bosh qahramon obrazini yaratishda Amir Temur shaxsidagi tadbirkor rahbar, muzaffar sarkarda, adolatli hukmdor, e’tiqodli musulmon kabi sifatlarning mushtarakligini ta’minlagan. Asarni janr va uslub xususiyatlariga ko‘ra, “tarixiy xronika” deb atash maqsadga muvofiqdir. Amir Temurning davlat arbobi va tarixiy shaxs sifatidagi qiyofasi o‘z davri voqealariga va o‘sha davrning mashhur tarixiy shaxslariga munosabatda ochib berilgan. Bu jihatdan Sohibqironning Amir Husayn, Yildirim Boyazid, To‘xtamishxon kabi yirik tarixiy

shaxslarga munosabatini o‘rganish orqali bosh qahramonning qator fazilatlari ochiladi. Muallif Amir Temurni tarixiy shaxs sifatida davrning ulkan kishilari bilan yuzlashtirish natijasida Sohibqiron murakkab xarakterining yangi qirralarini ochib berishga erishgan. Sohibqironning insoniy fazilatlari talqinida yozuvchi uning o‘z atrofidagi kishilar, oila va farzandlari, saroy a’yonlariga bo‘lgan munosabatini kuzatgan va Sohibqiron shaxsiga aloqador qator insoniy fazilatlarni mana shu munosabatlar fonida ochib berishga erishgan. Asar muallifi olim sifatida e’tibor topgan bo‘lib, ushbu roman muallifning badiiy nasr sodasidagi ilk tajribasi bo‘lishiga qaramay, asarni o‘qishli chiqishi uchun xalq maqollari, tilning individuallashgan shakllari va boshqa badiiy vositalardan foydalanilgani natijasida adib mahoratining ayrim qirralariga e’tibor qaratish mumkin.

Yozuvchi Muhammad Ali Amir Temur siyemosini roman janriga olib kirishda boshqa zamondoshlariga nisbatan faolroq harakat qilgan. U sho‘ro mafkurasi tazyiqi davrida ham sarbadorlar harakati voqealarini qalamga olish bilan Sohibqiron xarakterining asosiy qirralarini roman vositasida ko‘rsata olgan. Roman markazida garchi Amir Temur davridagi e’tiborli tarixiy hodisalardan biri sarbadorlar harakati tursa-da, ana shu harakatning yuzaga kelishi, tarixiy ildizlari va natijalarini kuzatish barobarida yozuvchi kitobxonlar e’tiboriga Amir Temur fe’lidagi mardlik, inson kelajagi uchun qayg‘urish, mamlakatni boshqarishda adolat tamoyillariga amal qilishi kabi xususiyatlarni ko‘rsata olgan. Romanning markaziy konflikti sifatida Sohibqiron va sarbadorlar o‘rtasidagi tarixiy munosabatlar emas, balki Amir Temur va uning noplak amirlar ga bo‘lgan munosabati keltirilgan. Bu bilan yozuvchi buyuk jahongir xarakteridagi yangi qirralarni ochishga, dushmaniga bo‘lgan nafrat, do‘stga - xalqqa bo‘lgan muhabbatning kuchidan yuzaga kelganini ko‘rsatishga erishgan.

Juda ko‘p tarixiy va badiiy asarlardan o‘rin olgan Amir Temur va Amir Husayn munosabati bu romanda ham o‘zining yangi qirralari bilan ko‘rsatilgan. Romanning bosh konflikti darajasiga olib chiqilgan munosabatlar silsilasi har ikki qahramonning xarakterini tarixiy haqiqat tamoyillari asosida ko‘rsata olishiga yordam bergen. Yozuvchi Muhammad Ali 80-yillardayoq roman janriga olib kirgan Sohibqiron

siymosi undan keyin yaratilgan romanlarga o‘ziga xos tarzda ma’naviy ozuqa bergen. Bu mavzuning keng va haqqoniy tarzda ishlanishida Muhammad Ali romanining ahamiyatini inkor etib bo‘lmaydi. Yozuvchi “Sarbadorlar” romani orqali Amir Temur siy wholemosining ma’lum bir jihatlarinigina aks ettirgan bo‘lsa, keyinchalik ushbu mavzuga qayta murojaat qilib, “Ulug‘ saltanat” romanida Sohibqiron hayoti va faoliyatini keng ko‘lamda tasvirlashga erishgan.

Istiqlol tufayli Amir Temur siy wholemosiga roman janri imkoniyatlari darajasida murojaat qilgan adiblardan biri To‘lqin Hayit bo‘lib, yozuvchi ushbu romanda Sohibqiron obrazini davrning shiddatli voqealari fonida emas, balki go‘zal tabiat manzaralari bilan uyg‘un ravishda ko‘rsata olgan. Romanning “Turon tunlari” deb ramziy nom olishi Turonzaminga tungi osoyishtalik kabi tinchlik olib kirgan Sohibqiron faoliyatiga ramziy ishoradir. Romanda Amir Temurning nafaqat jang-u jadallari, balki o‘z oilasi, yaqinlari, farzand-u beklariga bo‘lgan insoniy munosabatlari ham yozuvchining diqqat markazida bo‘lgan. Shavkatli jahongir xarakterining oddiy insoniy munosabatlар fonida ochilishi romanning o‘ziga xosligini ta’minlagan badiiy xususiyatlardan biridir. To‘lqin Hayit romani Amir Temur mavzusiga bag‘ishlangan boshqa romanlardan asar uslubining yengilligi, tilining sodda va latofatliligi, xalqona tasvirlarga boyligi bilan ajralib turadi.

O‘zbek nasrida Amir Temur shaxsi va faoliyatining barcha qirralarini keng epik planda aks ettirish endigina adabiy taomil darajasiga kirmoqda. Tahlilga tortilgan romanlarning mavzu va mundarijasi, g‘oyaviy va badiiy jihatlari shuni anglatadiki, hali Sohibqiron haqida ko‘plab yangi-yangi roman va epopeyalar yaratilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muhammad Ali "Sarbadorlar". Toshkent. G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1997-yil.
2. A.Sagdullayev, B.Aminov, O‘.Mavlonov, N. Norqulov "O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti".
3. UNESCO. "Amir Temur jahon tarixida". Toshkent- 2001.
4. "Temur tuzuklari". Forschadan Alixon Sog‘uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa birlashmasi- 1991.